



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

## AMALIY SAN'ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Ibodullayeva Zarifa Tojikulovna***Guliston davlat universiteti talabasi,***Jumaboyev Nabi Pardaboyevich***Ilmiy rahbar: Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *amaliy san'at insoniyatning madaniy merosini shakllantiruvchi va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy ko'priq vazifasini bajaruvchi sohalardan biridir. U milliy qadriyatlar, an'analar va estetik dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tezisda amaliy san'atning tarbiyaviy ahamiyati va uning jamiyatda ijobiliy o'rni yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *amaliy san'at, bezak san'ati, hunarmandchilik, ijodkorlik, ustozshogird.*

Inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqoniksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar borliqqa go'zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi [1:6]. San'atning yuzaga kelishi insonning obyektiv voqelik to'o'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga olib keldi, ajdodlari yaratgan kashfiyotlarni o'rganishga undadi. Bugun san'at keng ma'noga ega bo'lib, u teatr, musiqa, raqs, sirk, kino, panto-mima, me'morchilik, tasviriy san'at, amaliy san'at, bezak san'ati va h.k.larni o'z ichiga oladi. Bu san'at turlarining o'z ijodkorlari bor. Har biri o'z tarixi, rivojlanish xususiyatlariga ega [2:3]. Bugungi kunda amaliy san'at faqat badiiy va funksional ahamiyat bilan cheklanmay, balki yosh avlod tarbiyasida ham muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Amaliyotdagi badiiy ishlovlari, doimo insonning ijodiy fikrlash qobiliyatini, shaxsi ehtiyojlarini va estetik to'siqlarni ifodalagan. O'zbek xalqining amaliy bezak san'ati o'tmishning rivoji bo'lib, u odamlardagi ko'plab unsurlar bilan bog'lanishini ko'rsatadi. O'zbek xalqining madaniy merosi yangi avlodlarga o'tkazilgandan, urf-odatlarni saqlash va rivojlantirish uchun muhimdir. B undan tashqari, amaliy san'at, faqat bezak uchun emas, balki kundalik hayot vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Xalqimiz uzoq yillar davomida qilingan amaliy san'at asarlari orqali o'z tarixini, qadriyatlarini va dunyoqarashini kelajak avlodga qoldirib kelmoqda. Shuning uchun amaliy bezak san'ati nafaqat badiiy ijod, balki milliy identifikasiya va o'zligimizni anglatuvchi muhim element hisoblanadi [3:6]. Amaliy san'at nafaqat badiiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki insonlar o'rtasida umummadaniy aloqalarni ham kuchaytiradi. U madaniy merosni saqlash va avlodlarga yetkazish orqali shaxsiy va jamoa identifikatsiyasini shakllantiradi. Mahalliy hunarmandchilik, an'anaviy san'at turlari, va ular orqali yaratilgan buyumlar



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

milliy xususiyatlarni namoyon etadi, bu esa xalq tarixini va madaniyatini yangidan anglash imkonini beradi.

Amaliy san'atning ta'lif jarayonida o'rni beqiyosdir, chunki u o'quvchilarni yaratishga, izlanishga va estetik fikrlashga o'rgatadi. Bu orqali nafaqat badiiy ko'nikmalar, balki muammolarni hal qilish qobiliyati, ijodiy fikrlash va hamkorlik hissi rivojlanadi. Natijada, amaliy san'at nafaqat shaxsni tarbiyalash, balki jamiyatni birlashtirish va ijtimoiy qiymatlarni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ustoz-shogird an'analarining o'rni beqiyos.

Amaliy san'atda ustoz-shogird an'analar xalq hunarmandchiligi va badiiy tasavvurning asosiy poydevori hisoblanadi. Bu an'analar ustozning o'z bilim va ko'nikmalarini shogirdga o'rgatish jarayonini o'z ichiga oladi. Ustozlar, o'z navbatida, shogirdlarga nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki san'atning chuqur ma'nosi, madaniy konteksti va tarixini ham o'rgatadilar. Bu jarayon orqali shogirdlar sanatning nozikliklarini va uning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetadilar.

Ustoz-shogird munosabatlari asrlar davomida shakllanib, mahalliy an'analar va urfodatlar bilan boyitilgan [4:125]. Ustozlar o'z shogirdlarini faqat amaliy ko'nikmalarga emas, balki yetuk va ma'naviy qadriyatlarni ham o'rgatadi. Bu esa shogirdlarning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Natijada, amaliy san'atda ustoz-shogird munosabatlari insoniyat madaniyatini saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Amaliy san'atning tarbiyaviy omillarini bir qancha aspektlarda ko'rish mumkin.

1. Milliy qadriyatlarni shakllantirish. Amaliy san'at xalqning madaniy va tarixiy boyliklarini aks ettiradi. Masalan, o'zbek kashtachiligi, yog'och o'ymakorligi va kulolchilik kabi sohalar yosh avlodni milliy o'zlik va madaniy merosga hurmat bilan qarashga undaydi. Ushbu san'at turlari orqali yoshlar o'z millatining boy madaniyatini o'rganib, uni saqlashga intiladi.

2. Estetik didni rivojlantirish. Amaliy san'at go'zallikni anglash va qadrlash qobiliyatini shakllantiradi. O'quvchilar san'at asarlarini yaratish jarayonida ranglar uyg'unligi, shakllarning mutanosibligi va simmetriya kabi tushunchalarni amalda o'rganadilar. Bu esa ularning estetik didni oshiradi va ijodiy fikrlashga undaydi.

3. Ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish. Jamoa bo'lib ishlashni talab qiluvchi amaliy san'at loyihalari bolalar va yoshlarning hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular birgalikda ishlash orqali o'zaro hurmat, mas'uliyat va sabr-toqatni o'rganadilar.

4. Mehnatsevarlik va ijodkorlikni rivojlantirish. Amaliy san'at jarayoni mehnatni sevishga va ijodkorlikka undaydi. Masalan, gilam to'qish yoki loydan buyum yasash kabi faoliyatlar sabr, e'tibor va qat'iyatlilikni talab qiladi. Bu esa shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda amaliy san'at ta'lif dasturlarida alohida o'rin egallaydi. Maktablarda ushbu soha bo'yicha maxsus darslar, to'garaklar tashkil etilishi yoshlarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularda madaniy va axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Amaliy san'at nafaqat badiiy va amaliy qiymatga ega, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. U yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ijodkorlikni rivojlantirish va estetik dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Shu bois amaliy san'atga bo'lgan e'tiborni yanada oshirish va uni keng ommalashtirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. X.Muratov, R.Rajabov. Amaliy va badiiy bezak san'ati. O'quv qo'llanma. Chirchiq.: 2007.
2. N.Abdullayev. Juhon san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. T.: "Davr-press", 2007.
3. K.G'ulomov. Amaliy san'at. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya", 2007. 6-b.
4. Pardaboevich, Jumaboev Nabi, and Ibodullaeva Zarifa Tojikulovna. "FACTORS FOR INCREASING SPIRITUAL AND SOCIAL ACTIVITY IN YOUTH EDUCATION." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5.2 (2024): 124-126.
5. Pardaboyevich, Jumaboyev Nabi. "O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARING O'RNI." WORLD OF SCIENCE 6.11 (2023): 87-90.
6. Nafisa, Yakubova. "CHIZMACHILIK DARSALARIDA TALABALARНИ IJODIY-KREATIV FIKIRLASHGANO'RGATISH." Uz-Conferences. Vol. 1. No. 1. 2023.